



YONG'OQCHILIK TARMOG'IGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSİYALAR VA ULARNING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI

A.Karimova,
TIQXMMI MTU mustaqil izlanuvchisi.

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 9-fevral 2026-yil

Tasdiqlandi: 11-fevral 2026-yil

Jurnal soni: 17-B

Maqola raqami: 77

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v17i.1540>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ

СЛОВА/ KEYWORDS

intensiv yong'oq bog'lari, qo'shilgan qiymat zanjiri, qayta ishlash, yong'oq mahsulotlari diversifikatsiyasi, mahalliy ko'chatchilik

Ushbu maqolada O'zbekistonda yong'oqchilik tarmog'ini rivojlantirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar hajmi, tuzilishi va asosiy yo'nalishlari kompleks tahlil qilingan. Tadqiqotda intensiv yong'oq bog'larini barpo etish, sug'orish tizimlari, agrotexnologiyalar, mexanizatsiya va fitosanitar tadbirlarga qaratilgan investitsiyalarning amaldagi holati yoritilgan. Shuningdek, tarmoqda qo'shilgan qiymatni oshirish, mahalliy ko'chatchilikni rivojlantirish, qayta ishlash sanoatini kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlash orqali investitsion samaradorlikni ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kirish. Mamlakatimizda so'nggi yillarda sohaga berilayotgan alohida e'tibor sababli, tashabbuskor tadbirkorlar soni va ular tomonidan tarmoqqa kiritilayotgan investitsiyalar hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Islohotlarning yangi to'liqini boshida asosan yirik maydonlarda intensiv yong'oqzorlarni tashkil etishga e'tibor qaratilgan holda bu tadbirlar uchun iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan tadbirkorlar jalb etilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, mayda tovar xo'jaliklari ham faol qiziqish bildirmoqda. Jumladan, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari o'zlarining bo'sh turgan yerlariga intensiv yong'oq ko'chatlarini ekish hamda yerdan samarali foydalanish borasidagi qiziqishlari ortib bormoqda.

Adabiyotlar tahlili. Yong'oqchilik tarmog'ini rivojlantirish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish va investitsiyalarni jalb etish masalalari so'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Mazkur yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlar tarmoqni modernizatsiya qilish, innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish hamda bozor mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Jumladan, I.Yunusov va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yong'oq ishlab chiqarish hajmini oshirish va uning sotish tizimini takomillashtirish orqali aholi daromadlarini ko'paytirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Mualliflar yong'oqchilikni rivojlantirishda investitsiyalarning muhim o'rmini ta'kidlab, ishlab chiqarishni kengaytirish, qayta ishlash tizimini yo'lga qo'yish va bozor infratuzilmasini takomillashtirish zarurligini asoslab berganlar [1, 45-b.].

B.Raxmanovanning monografiyasida esa yong'oq yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari chuqur o'rganilib, tarmoqda resurslardan samarali foydalanish, intensiv bog'lar tashkil etish va investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Unda yong'oqchilikni barqaror rivojlantirishda davlat qo'llab-quvvatlash siyosatining ahamiyati alohida ta'kidlangan [2, 63-b.].

F.B.Axrorov va H.I.Avezovlar tadqiqotlarida Yevropa Ittifoqi bozorlariga yong'oq eksporti imkoniyatlari tahlil qilinib, tashqi bozor talablari, mahsulot sifati va logistika masalalari yoritilgan. Mualliflar eksport salohiyatini oshirish uchun qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va xalqaro standartlarni joriy etish muhimligini ta'kidlaydilar [3, 18-b.].

Shuningdek, I.O.Yunusov va U.N.Sadullaev tomonidan yozilgan ilmiy maqolada yong'oq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholashga oid ilmiy yondashuvlar tahlil qilingan bo'lib, unda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tarmoq rentabelligini oshirishda muhim omil sifatida qaraladi [4, 81-b.].

Avezov H.ning tadqiqotlarida Samarqand viloyati misolida yong'oq ishlab chiqarish holati va uning samaradorligi o'rganilib, hududlarda tarmoqni rivojlantirish uchun investitsiyalarni maqsadli yo'naltirish zarurligi ko'rsatib berilgan [5, 454-b.].

I.Yunusov va A.Inobatov ishlarida esa innovatsion texnologiyalar asosida resurslar samaradorligini oshirish orqali yong'oq ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Mualliflar investitsiyalarni ilmiy asoslangan agrotexnologiyalarga yo'naltirish tarmoq rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar [6, 33-b.].

Shu bilan birga, I.O.Yunusov va U.R.Sangirova tadqiqotlarida yong'oq yetishtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, aholi bandligini

ta'minlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini oshirishdagi roli yoritilgan [7, 432-b.].

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda yong'oqchilik tarmog'iga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi va ularning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi. Jumladan, tahlil va sintez usuli orqali yong'oqchilik sohasidagi mavjud ilmiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda statistik ma'lumotlar o'rganildi va umumlashtirildi. Shu bilan birga, taqqoslash usuli asosida tarmoqqa kiritilayotgan investitsiyalarning amaldagi holati va ularning ustuvor yo'nalishlari baholandi.

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-statistik tahlil usulidan foydalanilib, yong'oqchilik tarmog'ida intensiv bog'lar tashkil etish, sug'orish tizimlari, agrotexnologiyalar, mexanizatsiya hamda fitosanitar tadbirlarga yo'naltirilgan investitsiyalar holati o'rganildi. Shuningdek, tizimli yondashuv asosida tarmoqda qo'shilgan qiymat zanjiri, qayta ishlash imkoniyatlari va mahalliy ko'chatchilikni rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarini asoslashda ilmiy manbalar, sohaviy tadqiqotlar, iqtisodiy hisob-kitoblar hamda yong'oqchilik bilan shug'ullanayotgan xo'jaliklar faoliyatiga oid ma'lumotlardan foydalanildi. Ushbu metodologik yondashuvlar yong'oqchilik tarmog'ini rivojlantirishda investitsiyalarning ustuvor va istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Olib borilgan tadqiqotlar asosida amaliyotda tarmoqqa kiritilayotgan ichki va tashqi investitsiyalar yo'nalishlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak [1,4,7], xo'jaliklar tomonidan quyidagi yo'nalishlarga investitsiya oqimi ortib borayotganligini kuzatish mumkin (1-rasm). Jumladan:

- intensiv yong'oq bog'larini tashkil etish uchun serxosil ko'chatlarni import qilish, bunda ularni yetkazib beruvchi tomonidan ekish hamda kelgusi ko'rsatiladigan xizmatlar paketi uchun to'lovlarni o'z ichiga oladi;

- intensiv yong'oq bog'larini tashkil etish uchun sug'orish tizimlari importi, bunda asosan tomchilatib sug'orish tizimi va unga xizmat ko'rsatish majmualari uchun to'lovlarni qamrab oladi;

- intensiv yong'oq bog'larida malakali agrotexnologlarni jalb etish, bunda intensiv bog'lar yong'oqchilikda yangi yo'nalish bo'lganligi bois, mutaxassislar shartnoma asosida chet eldan jalb etilmoqda;

- yong'oqlarni yig'ib olish, tashish va saqlash qurilmalarini importi, bunda asosan yuz gektar va undan ortiq maydonlarda tashkil etilgan intensiv yong'oq bog'larida qo'l mehnatining oldini olish maqsadida mexanizatsiyalashtirish uchun texnikalarni import qilishga investitsiyalar kiritilmoqda;

- kasallik va zararkunandalarga qarshi kurash vositalarini xarid qilish, bunda dastlabki 3 yilda yosh nihollarning kasalliklarga chalinuvchan bo'lishi, mamlakatimizda yoz va qish mavsumlarida anomal xaroratlarning kuzatilishi hamda ba'zi holatlarda ortiqcha namlik natijasida yuzaga keladigan kasallik va zararkunandalarga qarshi dori vositalari haridi va ularning zahirasini yaratish maqsadida investitsiya kiritilmoqda.



1-rasm. Respublikamizda yong'oqchilik tarmog'iga kiritilayotgan investitsiyalar va ularning istiqbolli yo'nalishlari¹.

Ko'rinib turibdiki, bugungi kunda tarmoqqa kiritilayotgan investitsiyalar ko'lam va yo'nalishlari qisqa muddatli hamda joriy muammolarning yechimiga qaratilgan bo'lib, u odatda bir martalik ko'rinishga ham ega bo'ladi. Ammo, tarmoqning barqaror rivojlanishi, uning fundamental asoslari yaratilishi hamda uzoq yillar davomida xizmat qilishi uchun ustuvor yo'nalishlarga investitsiyalarni jalb etish, investitsion qo'yilmalar uchun qulay muhitni yaratib berish, ularning oqimini to'g'ri yo'naltirish dolzarblik kasb etadi.

Muhokama. Olib borilgan izlanishlar asosida mamlakatimizda yong'oq yetishtirish hamda tarmoqda qo'shilgan qiymat hajmini oshirish uchun quyidagi bir qator yo'nalishlarga investitsiyalarni jalb etish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Xususan:

- yetishtirilgan yong'oqni dastlabki va chuqur qayta ishlash sanoatini tashkil etishni rag'batlantirish. Ma'lumki, mamlakatimizda yong'oq yetishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulushi yuqori bo'lib, mayda tovar xo'jaliklari odatda tovar mahsuloti yetishtiradi. Lekin so'nggi yillarda yirik yong'oqchilik plantatsiyalarining tashkil etilishi bu boradigi tendensiyalarni o'zgartirishi tabiiy. Galdagi vazifa esa yetishtirilgan yong'oqni xomashyo sifatida sotishdan ko'ra, bir necha barobar ko'proq qiymat yaratilishi imkoniyati mavjud bo'lgan sanoat yo'nalishlarini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb etish sanaladi. Sababi yetishtirilgan mahsulotlar bozorni to'yintirish hisobiga bahoning keskin tebranishlariga duch kelib, dastlabki bosqichda kiritilgan investitsiyalar samaradorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Buning uchun esa doimiy kafolatlangan haridorlar bozorini shakllantirish maqsadga muvofiq;

- qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyati yuqori bo'lgan (murabbo, mebel sanoati va boshqa) yo'nalishlarni rivojlantirish. Odatda, yong'oqchilikka chiqitsiz yo'nalish sifatida qaraladi. Bunga bir qator sabablar yetarli, albatta. Yong'oq nafaqat pishib yetilishi, balki xom davrlarida ham qayta ishlash korxonalari uchun xomashyo bo'la oladi. Rivojlangan davlatlarda yong'oq dovchasidan tayyorlangan murabbolarga talab yuqori bo'lib, mamlakatimiz bozori uchun bu yangi yo'nalish sanaladi. Undan tashqari, pishib yetilgan yong'oq po'stlog'i ham mebelsozlikda xomashyo sifatida qadrlanadi. Ushbu yo'nalishlar tarmoqni diversifikatsiya qilish, ushbu yo'nalishlarga investitsiyalarni keng jalb etish uchun jozibali hisoblanadi [4];

- mahalliy sharoitlarga mos bo'lgan intensiv yong'oq ko'chatchiligini rivojlantirish. Intensiv yong'oqzorlarni tashkil etishda qo'chatchilik borasida muammolarimiz yaqqol ko'zga tashlanib qolayotgan bo'lib, bu

borada tadqiqotlarimiz yetarli emasligi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Ammo, tarmoqni doim ham tashqi davlatlarda yetishtirilgan intensiv ko'chatlar importi bilan rivojlantirib bo'lmaydi. Undan tashqari, ushbu yo'nalishda bozorlarda katta bo'shliq shakllangan bo'lib, uni qondirishning yagona yo'li import emas balki mahalliy sharoitlarga moslashgan ko'chatlarni yetishtirish sanaladi. Bu esa ushbu yo'nalishga investitsiyalarni jalb etish uchun jozibali, o'z navbatida, ustuvor yo'nalishlardan ekanligidan dalolat beradi;

- yong'oqchilikda marketing tadqiqotlari, kasalliklarga qarshi kurashish va agrotexnologiya yo'nalishlarida malakali kadrlar tayyorlash. Odatda tadqiqotlar va malakali kadrlar tayyorlashda davlat tomonidan kiritilayotgan investitsiyalarning o'rni beqiyos. Rivojlangan davlatlar tajribasida ham ushbu yo'nalishlarda davlatning moliyaviy ko'magiga alohida urg'u qaratiladi. Shu bilan birgalikda, xo'jaliklar tomonidan malakali agromolarning chet eldan olib kelinishi, ularga yetarli iqtisodiy sharoitlarning yaratib berilishi bu borada kadrlar tayyorlash tizimida xususiy sektorning ham qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Boshqacha qilib aytganda, ma'lum bir xo'jalik malakali mutaxassislarni tayyorlagan holda respublika bo'yicha xizmat ko'rsatishi yoki o'zining ko'chat va mevalarini sotishda nisbatan ustunlikka ega bo'lishi borasida qiziqishlar shakllanmoqda. Bu esa ushbu yo'nalishga investitsiya kiritish istiqbolli yo'nalishlardan biri sifatida baholanadi [4,7].

Xulosa. Umuman olganda, mamlakatimizda yong'oq bozorini rivojlantirish hamda ushbu tarmoqqa investitsiyalarni jalb etish barcha manfaatdor tomonlar uchun birdek jozibali hamda innovatsion yo'nalish hisoblanadi. Rivojlanishning ushbu bosqichida esa ularga sharoit yaratib berish, chuqur ilmiy tadqiqotlar olib borish orqali to'g'ri yo'nalishlarni belgilab berish, ma'lumotlar va tadqiqot natijalari bilan doimiy ravishda xabardor qilib borish, mahsulot yetishtiruvchilarni real vaqt rejimida axborot bilan qurollantirib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biriga aylangan.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda yong'oqchilik tarmog'iga kiritilayotgan investitsiyalar asosan qisqa muddatli va joriy ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan. Biroq tarmoqning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun investitsiya siyosatini strategik yo'nalishlar asosida qayta ko'rib chiqish zarur. Xususan, yong'oqni chuqur qayta ishlash, chiqitsiz ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish, mahalliy sharoitlarga mos intensiv ko'chatchilikni rivojlantirish hamda ilmiy-tadqiqot va kadrlar tayyorlash

¹ Ilmiy tadqiqotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.

tizimini kuchaytirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ushbu yo'nalishlarga maqsadli investitsiyalarni jalb etish tarmoqning raqobatbardoshligini

oshirish, qo'shilgan qiymat hajmini kengaytirish va yong'oqchilikning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. И.Юнусов, У.Сангирова, У.Садуллаев, Ф.Ахоров, М.Яхяев “Ёнғоқ ишлаб чиқариш ҳажмининг ўзгариши ҳамда унинг сотиш тизимини яхшилаш орқали аҳоли даромадларини ошириш йўналишлари” мавзусида Илмий-услубий қўлланма. Т.: “ТИҚХММИ” МТУ босмахона, 2024. – 233 б.
2. B.Raxmanova Yong'oq yetishtirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslarini takomillashtirish (Monografiya). - Step by step print MChJ bosmaxonasi. Andijon, 2023 y.. 152 b.
3. F.B.Axrorov, H.I.Avezov Yevropa ittifoqi bozorlariga yong'oq eksporti. Uslubiy qo'llanma. - Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti 2023. – 40 bet.
4. I.O.Yunusov, U.N.Sadullayev Analysis of scientific approaches to the economic efficiency of growing nuts. // Journal of “Sustainable Agriculture”, №1(17).2023. 80-83 betlar.

5. Avezov H. Samarqand viloyatida yong'oq ishlab chiqarish va uning samaradorligi masalalari. // Iqtisodiyot va ta'lim / 2023-yil 1-son. 452-456.

6. I.Yunusov, A.Inobatov. The importance of resource efficiency in assessing the possibilities of increasing walnut production using innovative technologies. №4(20).2023 Journal of “Sustainable Agriculture” 32-35 betlar.

7. I.O.Yunusov, U.R.Sangirova Yong'oq yetishtirish va uni hajmini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. // «QISHLOQ VA SUV XO'JALIGINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI» mavzusidagi an'anaviy XXII – yosh olimlar, www.tiame.uz magistrantlar va iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjumani. Toshkent - 2023 yil www.tiame.uz. 431-435-betlar.